



O'ZBEKISTON SHAROITIDA VALYUTA KURSI FARQLARINI HISOBGA OLISHNI RAQAMLASHTIRISH BO'YICHA MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

i.f.d., prof. Misrov Kamoliddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0007-0298-6714

misirovkomoliddin0218@gmail.com

Po'latov Sirojbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-3579-2767

amgbrabus234@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston sharoitida valyuta kursi farqlarini hisobga olishdagi mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni raqamlashtirish asosida hal etish bo'yicha amaliy va metodologik takliflar ilgari surilgan. Xususan, kurslarni avtomatik yangilash, "Buxgalteriya hisobi xalqaro standarti (BHXS) 21" standartiga mos metodika ishlab chiqish va sun'iy intellekt orqali monitoring tizimi yaratish zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: valyuta kursi, kurs farqi, buxgalteriya hisobi, BHXS 21, raqamlashtirish.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ УЧЕТА КУРСОВЫХ РАЗНИЦ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

д.э.н., проф. Мисиров Камолитдин

Ташкентский государственный экономический университет

Полатов Сирожбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье проанализированы существующие проблемы учета разниц валютных курсов в Узбекистане и предложены практические и методологические решения на основе цифровизации. В частности, обоснована необходимость автоматического обновления курсов, разработки методики на основе МСФО 21 и внедрения системы мониторинга с использованием искусственного интеллекта.

Ключевые слова: валютный курс, курсовые разницы, бухгалтерский учет, МСФО 21, цифровизация.

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DIGITALIZATION IN ACCOUNTING FOR FOREIGN EXCHANGE DIFFERENCES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN

DSc, prof. Misrov Kamoliddin

Tashkent State University of Economics

Pulatov Sirozhbek

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the current challenges in accounting for foreign exchange differences in Uzbekistan and presents practical and methodological solutions based on digital transformation. The study emphasizes the importance of automating exchange rate updates, developing a methodology aligned with IFRS 21, and implementing an AI-based monitoring system to enhance accuracy, transparency, and compliance in financial reporting.*

Keywords: *currency rate, exchange difference, accounting, IFRS 21, digitalization.*

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyoti tobora ochilayotgan global bozorlarga integratsiyalashib borar ekan, xorijiy valyutadagi operatsiyalar hajmi sezilarli darajada ortmoqda. Bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriyasida valyuta kursi farqlarini aniqlash va to'g'ri hisobga olishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

So'mning erkin konvertatsiyasi e'lon qilingan 2017-yil 2-sentabrdagi PQ-3274-sonli Prezident qarori, shuningdek, "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va PF-230-sonli 2023-yilgi farmonlarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni raqamlashtirish zarurligi alohida qayd etilgan.

Ammo amaliyotda ko'pchilik korxonalarda valyuta kursining o'zgarishlari noto'g'ri hisobga olinadi, kurs farqlari kechiktirib aks ettiriladi va eng muhimi, ushbu jarayonlar hanuzgacha qo'lda boshqarilmoqda.

Mazkur maqolada valyuta kursi farqlarini hisobga olishdagi mavjud muammolar tahlil qilinadi hamda raqamlashtirish orqali ularni avtomatik, aniq va shaffof yuritish imkoniyatlari o'rganiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – O'zbekiston buxgalteriya tizimida valyuta kursi farqlarini hisobga olishni takomillashtirish yo'llarini raqamlashtirish asosida ishlab chiqishdir.

Adabiyotlar sharhi.

Valyuta kursi farqlarini hisobga olish va uni raqamlashtirish masalasi bugungi kunda global moliyaviy tizimning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro va mahalliy olimlar bu borada turli ilmiy yondashuvlarni ilgari surishgan.

Doupnik va Perera (2020) o'z tadqiqotlarida xorijiy valyutadagi operatsiyalarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali nazorat qilish, real vaqtli monitoring va AI yordamida valyuta risklarini minimallashtirish zarurligini ta'kidlaganlar. Ularning fikricha, kurs farqlarining noto'g'ri hisoblanishi moliyaviy natijalarda salbiy og'ishlarga olib keladi.

Nobes va Parker (2018) esa BHXS 21 standarti asosida xorijiy valyutadagi operatsiyalarni hisobotlarda to'g'ri aks ettirishning afzalliklarini yoritib bergan. Ular valyutali operatsiyalarni funksional valyutada aks ettirish orqali xalqaro moliyaviy shaffoflikni ta'minlash mumkinligini ko'rsatadilar.

O'zbekiston olimlaridan Muxiddinov (2021) buxgalteriya hisobi tizimini BHXS talablariga muvofiqlashtirishda milliy normativ hujjatlarni takomillashtirish zarurligini asoslab bergan. U dasturiy mahsulotlar orqali kurs farqlarini avtomatik aniqlashni ilgari suradi.

Nazarov (2021) o'z maqolasida O'zbekiston korxonalarida xalqaro standartlar asosida valyutali operatsiyalarni aks ettirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatgan. U 1C kabi dasturlar bilan integratsiyani chuqurlashtirishni tavsiya qiladi.

Savitskaya (2014) esa moliyaviy faoliyatni tahlil qilishda kurs farqlarining ta'siri va ularni boshqarish metodologiyasiga e'tibor qaratadi. U kursdagi tebranishlar buxgalteriya rentabelligiga bevosita ta'sir qilishini qayd etgan.

Balabanov (2014) valyuta riskini prognozlash va nazorat qilishda sun'iy intellekt va analitik tizimlarning joriy etilishi orqali hisobotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish mumkinligini asoslab bergan.

Ushbu manbalar shuni ko'rsatadiki, valyuta kursi farqlarini hisobga olish jarayonida raqamlashtirishning ahamiyati nihoyatda yuqori. U nafaqat inson xatolarini kamaytiradi, balki xalqaro standartlarga mos, shaffof va ishonchli hisobotlarni ta'minlash imkonini yaratadi.

Tahlil va natijalar muhokamsi.

O'zbekiston korxonalarida xorijiy sheriklar bilan faoliyat olib borish holatlari kengayib bormoqda. Bu esa buxgalteriya amaliyotida xorijiy valyutadagi operatsiyalarni to'g'ri aks ettirish va kurs farqlarini aniqlik bilan hisoblash zaruratini kuchaytirmoqda. Biroq amaliyotda bir qator tizimli muammolar mavjud. Birinchidan, ko'plab korxonalarda mahsulot yoki xizmat xorijiy valyutada xarid qilinadi, biroq to'lov keyinroq amalga oshiriladi va bu orada valyuta kursi o'zgaradi. Biroq kurs farqlari ko'pincha umuman aks ettirilmaydi yoki daromad va zarar sifatida noto'g'ri tasniflanadi. Natijada moliyaviy hisobotlarda chalkashlik vujudga keladi va korxonaning moliyaviy natijalari noto'g'ri ko'rsatiladi. Ikkinchidan, ko'plab buxgalteriya tizimlarida (xususan, 1C yoki Excel asosli yechimlarda) valyuta kursi qo'lda kiritiladi. Bu esa kursning yangilanmasligi, noto'g'ri raqam kiritilishi yoki kechikkan yozuvlar tufayli kurs farqining noto'g'ri hisoblanishiga sabab bo'lmoqda. Uchinchidan, BHXS 21 standarti nazariy jihatdan yaxshi yoritilgan bo'lsa-da, amaliyotda cheklangan darajada qo'llaniladi. Ko'pchilik buxgalterlar hali ham milliy me'yorlarga asoslanadi, bu esa funksional valyuta tushunchasining e'tiborga olinmasligiga, qayta baholashlarning amalga oshirilmasligiga va kurs farqlarining moliyaviy hisobotda alohida band sifatida aks ettirilmasligiga olib kelmoqda. To'rtinchidan, kadrlar malakasi ham muhim muammo sifatida ajralib turadi. Ko'plab xodimlar valyuta kursi farqlarini qanday aniqlash, ularni qanday vaqt oralig'ida hujjatlashtirish, qanday tahlil qilish kerakligini to'liq tushunmaydi. Raqamli dasturlar bilan ishlash ko'nikmalarining sustligi esa xatolar, noaniqliklar va byudjetga salbiy ta'sirni keltirib chiqarmoqda. Beshinchidan, moliyaviy hisobotlar ko'pincha xalqaro talablarga to'liq mos kelmaydi. Kurs farqlari alohida ajratilmaydi, ularning daromad yoki zarar sifatida aks ettirilishi tizimli asosda yuritilmaydi va bu holat soliq organlari uchun ham murakkablik tug'diradi. Natijada investorlar yoki auditorlar oldida korxona buxgalteriya hisobining ishonchliligi shubha ostida qoladi.

O'zbekiston amaliyotida valyutali operatsiyalar va kurs farqlarini hisobga olishda iqtisodiy faollik kuchaygani holda, buxgalteriya tizimi hali to'liq tayyor emas. Raqamlashtirish va avtomatlashtirishsiz bu jarayonlar inson xatolariga, ishonchsiz hisobotlarga va risklarga olib kelmoqda.

O'zbekiston korxonalarida valyuta kursi farqlarini hisobga olishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy texnologiyalar, xususan raqamlashtirish asosida ishlab chiqilgan tizimli yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, mavjud buxgalteriya dasturlarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy valyuta kursi bilan avtomatik integratsiya qilish zarur.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamlashtirilgan yondashuv valyutali operatsiyalarni hisobga olishda aniqlik, shaffoflik va xalqaro me'yorlarga moslikni ta'minlaydi.

Bu orqali kundalik valyuta kurslari inson ishtirokisiz tizimga avtomatik ravishda yuklanadi va kurs farqlarining aniqligi hamda yangilanish tezligi ta'minlanadi. Bundan tashqari, valyuta kursi farqlarini avtomatik aniqlash va ularni moliyaviy hisobotlarda daromad yoki zarar sifatida tasniflab beruvchi algoritmik modullar ishlab chiqilishi lozim. Bu nafaqat xodimlar ishini yengillashtiradi, balki inson xatosining oldini oladi hamda hisobotlarda aniqlik va ishonchlilikni ta'minlaydi.

Valyuta kursi farqlarini hisobga olishda qo'lda va raqamlashtirilgan tizimlarning solishtirmasi

No	Ko'rsatkichlar	Qo'lda boshqariladigan tizim	Raqamlashtirilgan tizim
1	Valyuta kursini kiritish	Xodim tomonidan qo'lda kiritiladi	Markaziy bank bilan integratsiya orqali avtomatik
2	Kurs farqlarini aniqlash	Excel yoki qo'lda hisob-kitob orqali	Avtomatik algoritmlar asosida aniqlanadi
3	Xatolik ehtimoli	Yuqori	Nihoyatda past
4	Tahlil va monitoring	Qog'ozda, cheklangan, kechiktirilgan	Real vaqt rejimida, AI yordamida
5	Hisobot shakllantirish	Kechikkan va ba'zida noto'liq	Tezkor, to'liq, avtomatlashtirilgan
6	Standartlarga moslik	BHXS 21 to'liq qo'llanilmaydi	BHXS 21 asosida moslashtirilgan

Kurs farqlari hisobini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish uchun BHXS 21 asosida milliy moslashtirilgan metodikani ishlab chiqish va har bir xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya siyosatida kurs farqlariga oid alohida bo'limni joriy etish taklif qilinadi. Shuningdek, valyuta riskini oldindan baholash va monitoring qilishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali korxonalar valyuta operatsiyalarini iqtisodiy jihatdan qulay va xavfsiz vaqt oralig'ida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sun'iy intellekt tizimlari o'tgan davr kurslaridan kelib chiqqan holda prognozlar beradi, potensial zarar yoki foydani aniqlaydi va rahbariyatni ogohlantiradi. Shuningdek, valyutali operatsiyalarni alohida-alohida dasturlarda yuritish o'rniga, buxgalteriya, soliq, bank va audit tizimlarini yagona raqamli platforma orqali integratsiyalash zarur. Bu esa hujjat aylanishini tezlashtiradi, takroriy hisoblarni oldini oladi va shaffoflikni oshiradi. Taklif etilgan yechimlar orqali valyutali operatsiyalarning hisobda aks ettirilishi ancha soddalashadi, tizim avtomatlashtiriladi, inson xatosi kamayadi va xalqaro amaliyotga yaqinlashgan buxgalteriya muhiti shakllanadi.

Xulosa va takliflar.

Maqolada O'zbekiston sharoitida valyuta kursi farqlarini hisobga olishdagi mavjud holat tahlil qilinarkan, bu jarayon amaliyotda yetarlicha tizimlashtirilmaganligi, raqamli integratsiyalashuv darajasining pastligi va xalqaro standartlarning to'liq tatbiq qilinmaganligi aniqlandi. Ayni paytda iqtisodiy islohotlar, jumladan valyuta bozorining erkinlashtirilishi hisob-kitob operatsiyalarida xorijiy valyutadan foydalanish hajmini oshirib, buxgalteriya tizimiga bo'lgan talabni keskin kuchaytirgan. Amaliy kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, valyutali operatsiyalar bilan bog'liq ma'lumotlar aksariyat hollarda qo'lda qayd etiladi, kurs farqlari noto'g'ri yoki kechikib aks ettiriladi va BHXS 21 standartining asosiy tamoyillari amalda qo'llanilmaydi. Buning oqibatida moliyaviy hisobotlarda aniqlik yo'qoladi, soliq va audit jarayonlarida tushunmovchiliklar yuzaga keladi hamda investitsion ishonchlikka putur yetadi.

Mazkur maqolada ilgari surilgan takliflar valyutali operatsiyalarni avtomatik ravishda qayd etish, kurs farqlarini real vaqt rejimida aniqlash, sun'iy intellekt asosida monitoring qilish, BHXS 21 asosida milliy metodika ishlab chiqish va buxgalteriya tizimlarini raqamli integratsiyalash orqali mavjud muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi. Taklif etilgan raqamlashtirish asosidagi yondashuvlar valyutali operatsiyalar hisobi va tahlilida aniqlik, tezkorlik va shaffoflikni ta'minlash bilan birga, O'zbekistonning xalqaro buxgalteriya muhiti bilan uyg'unlashuv darajasini ham oshiradi.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

- BHXS 21 (2020) *Xalqaro buxgalteriya standartlari* – BHXS 21. “Valyuta kurslarining ta’siri”. – IFRS Foundation.
- Doupnik T., Perera H. (2020) *International Accounting*. – New York: McGraw-Hill Education, – 540 b.
- Farmon (2022) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-87-sonli farmoni*. 2022-yil 24-fevral. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.
- Farmon (2023) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-230-sonli farmoni*. 2023-yil 28-dekabr. “Buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari”.
- Nobes C., Parker R. (2018) *Comparative International Accounting*. – London: Pearson Education, – 450 b.
- Qaror (2017) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3274-sonli qarori*. 2017-yil 2-sentabr. “Valyuta siyosatini liberallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
- Абдурахмонов А.А. (2020) *Бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари*. – Тошкент: Иқтисодийот, – 240 б.
- Қурбонов И.Ж. (2023) *Молиявий ҳисобда рақамлаштиришнинг аҳамияти ва истиқболлари // Иқтисодий тараққиёт журнали*. – №2. – Б. 45–50.
- Мухиддинов Қ.Қ. (2021) *Бухгалтерия ҳисобини халқаро стандартларга мослаштириш масалалари // Тошкент молия институти илмий журнали*. – №4. – Б. 28–33.
- Назаров Б.Б. (2021) *Ўзбекистон корхоналарида БҲХС асосида валюта операцияларини ҳисобга олиш // ТДИУ магистрлар журнали*. – №3. – Б. 31–36.
- Раҳимов М. (2022) *Бухгалтерия ҳисобида курс фарқларининг солиққа таъсири // ТДИУ илмий-амалий журнали*. – №1. – Б. 52–58.